O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

KATTAQO‘G‘ON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№_____
2025 yil “22” dekabr

“TASDIQLAYMAN”
KDPI rektori
_____ Sh.R.Urakov
2025 yil “22” dekabr

60110800 - Kimyo bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilarning umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi uchun

DASTUR VA BAHOLASH MEZONLARI

Kattaqo‘rg‘on – 2025

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2009-yil 22-maydagi 160-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi “Oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 15-avgustdagi 365-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 60540100 –Matematika bakalavr ta’lim yo‘nalishining malaka talabi va o‘quv rejasi asosida ishlab chiqildi.

TUZUVCHILAR:

1. J.J.Javxarov Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi v.b, dotsent, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD).

2. X.Y.Isakov Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi v.b, dotsent, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

3. I.Y.O‘tashev Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi assistenti, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

4. I.A.Iskandarov Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi assistenti.

5. T.B.Ziyoyev Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi assistenti.

TAQRIZCHILAR:

1.D.B.Tuxtayev Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining “Organik sintez va bioorganik kimyo” kafedrasi mudiri kimyo fanlari nomzodi, dotsent.

2. E.Eliboyev Samarqand davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti kimyo kafedrasi dotsenti (PhD)

Mazkur dastur “ Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi Kengashining 2025 yil _____ -sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **dots. Z.K.Shukurov**

Mazkur dastur “Aniq va tabiiy fanlar” fakulteti Kengashining 2025 yil _____ -sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Kengash raisi: **(PhD) S.Rajabov**

KIRISH

60110800 – Kimyo yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta’limning o‘quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi, uning nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini to‘liq o‘zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tgan shaxsga “bakalavr” malakasi (darajasi) hamda oliy ma’lumot to‘g‘risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.

60110800 – Kimyo yo‘nalishi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi uchun dastur ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi 5 ta fan asosida shakllantirilgan. Bu fanlar o‘z negizida qamrab olingan mazmun quyida batafsil bayon etiladi.

UMUMIY KIMYO VA NOORGANIK KIMYO
fani bo’yicha:

Umumiy kimyo fanining asosiy maqsadi talabalarga asosiy kimyoviy hodisalar, qonuniyatlari va amaliy qo‘llanishlari bo‘yicha mantiqiy fikrlash, kimyoviy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish, o‘zining firk-mulohaza, xulosalarini asosli tarzda aniq bayon etishga o‘rgatishdir. Umumiy kimyo fanining asosiy vazifasi talabalarda ilmiy-amaliy dunyoqarashni, ya’ni kimyoviy hodisalarning tabiatini to‘g‘ri tasavvur qilish, tabiiy fanlar sohasida qo‘yilgan har bir aniq vazifalar mazmunini umumiy kimyo qonunlari bilan bog‘lash; asosiy kimyoviy o‘lchov asbob-uskunalaridan foydalana bilish; kimyo fanining rivojida o‘zbek allomalarining qo‘shgan hissalaridan g‘ururlanishni shakllantirish; talabalarning mustaqil ishlash malakasini, tahliliy mulohaza yuritish qobilyatini, shuningdek asosiy va qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanish mahoratini o‘stirish. Umumiy kimyo fanining atamalari, tegishli hodisalari, qonun va qonuniyatlarining kimyoviy mohiyatini tushunib olish. Fan doirasidagi masalalarni yechish va yechimlardan to‘g‘ri xulosalar chiqarish. Kimyoviy tajribalar, namoyishlar va hodisalarni kimyoviy qonun va prinsiplari asosida tavsiflash. Kimyoda qo‘llanilidigan kimyoviy qonunlar, prinsiplar, ideallashtirilgan modellar va sxemalarning qo‘llanilish chegarasini bilishi kerak. Umumiy kimyo bo‘yicha egallangan nazariy bilim va ko‘nikmalarni tegishli tajriba natijalarini talqin qilishga amalda qo‘llash. Oddiy laboratoriya asboblarini yig‘ish, o‘lchashlarni bajarishni va natijalarni hisoblashni, eksperiment xatoliklarini hisoblash va tajriba sifatini xulosalashni bilishlari kerak. Umumiy kimyo fanining asosiy qoida va qonunlaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarishga oid amaliy malaka hamda ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Egallangan nazariy bilimlarni kelajakdagi ilmiy faoliyatda samarali qo‘llay bilishga oid malaka hamda ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

Noorganik kimyo fanining asosiy maqsadi talabalarni kimyoviy elementlar asosiy qonuniyatlari va amaliy qo‘llanishlari bo‘yicha mantiqiy fikrlash, kimyoviy tafakkurini rivojlantirish, o‘zining firk-mulohaza, xulosalarini asosli tarzda aniq bayon etishga o‘rgatishdir. Noorganik kimyoni o‘qitishdan asosiy maqsad – talabalarni ma’lum tartibda yig‘ilgan mavjud material va zamonaviy konsepsiyalar yig‘indisi bilan tanishtirishgina emas, balki talabani ijodiy ishlashga, ya’ni mavjud ma’lumotni tahlil qilib uning sabablarini tushungan holda zaruriy xulosalar chiqarishga o‘rgatishdan iborat. Shu jarayonda ilmiy-amaliy dunyoqarashni

shakllantirish, ya'ni hayotiy muammolarni hal qilishda noorganik kimyo bilimlaridan foydalanish, bilimlarni hayotiy muammolar bilan bog'lash; kimyoviy asbob-uskunalaridan foydalanish; elementlar kimyosi rivojida o'zbek olimlarining qo'shgan hissalaridan g'ururlanishni shakllantirish; talabalarning mustaqil ishlash malakasini, tahliliy mulohaza yuritish qobilyatini va adabiyotlardan foydalanish mahoratini o'stirish .

KIMYO O'QITISH METODIKASI
fani bo'yicha:

Kimyo o'qitish metodikasi fanining asosiy maqsadi talabalarga asosiy kimyoviy hodisalar, qonuniyatlari va amaliy qo'llanishlari bo'yicha mantiqiy fikrlash, kimyoviy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish, o'zining firk-mulohaza, xulosalarini asosli tarzda aniq bayon etishga o'rgatishdir. Kimyo o'qitish metodikasi fanining asosiy vazifasi talabalarda ilmiy-amaliy dunyoqarashni, ya'ni kimyoviy hodisalarning tabiatini to'g'ri tasavvur qilish, tabiiy fanlar sohasida qo'yilgan har bir aniq vazifalar mazmunini umumiy kimyo qonunlari bilan bog'lash; asosiy kimyoviy o'lchov asbob-uskunalaridan foydalana bilish; kimyo fanining rivojida o'zbek allomalarining qo'shgan hissalaridan g'ururlanishni shakllantirish; talabalarning mustaqil ishlash malakasini, tahliliy mulohaza yuritish qobilyatini, shuningdek asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish mahoratini o'stirish. Fan doirasidagi masalalarni yechish va yechimlardan to'g'ri xulosalar chiqarish. Kimyoviy tajribalar, namoyishlar va hodisalarni kimyoviy qonun va prinsiplari asosida tavsiflash. Kimyoda qo'llanilidigan kimyoviy qonunlar, prinsiplar, ideallashtirilgan modellar va sxemalarning qo'llanilish chegarasini bilishi kerak. Kimyo o'qitish metodikasi bo'yicha egallangan nazariy bilim va ko'nikmalarni tegishli tajriba natijalarini talqin qilishga amalda qo'llash. Oddiy laboratoriya asboblarini yig'ish, o'lchashlarni bajarishni va natijalarni hisoblashni, eksperiment xatoliklarini hisoblash va tajriba sifatini xulosalashni bilishlari kerak. Kimyo o'qitish metodikasi fanining asosiy qoida va qonunlaridan to'g'ri xulosalar chiqarishga oid amaliy malaka hamda ko'nikmalarga ega bo'lish. Egallangan nazariy bilimlarni kelajakdagi ilmiy faoliyatda samarali qo'llay bilishga oid malaka hamda ko'nikmalarga ega bo'lish

ORGANIK KIMYO
fani bo'yicha:

Organik kimyo fanini o'qitishdan maqsad talabalarga organik kimyo asoslarini, organik birikmalarning tuzilishi bilan kimyoviy – fizikaviy xossalarini bog'laydigan umumiy qonunlarni, organik birikmalarni sintez qilishning zamonaviy usullarini, kimyoviy xossalarini, ularning sanoatda, qishloqxo'jaligida, tibbiyotda va boshqa sohalarda qo'llashni o'rgatishdan iborat. Organik kimyo kimyo fanining asosiy va katta bo'limi bo'lib, tabiatshunoslikning muhim bo'g'inidir. U jonli va jonsiz tabiatdagi uglerod birikmalarining bir-biriga aylanishini, xossalarini, rolini o'rgatadi. Organik birikmalarni o'rganishning ahamiyati shundan iboratki, ular inson hayoti va hayotiy faoliyatini ta'minlovchi zarur moddalar ekanigatalabalar e'tiborini qaratadi. Fanning vazifasi organik birikmalarning sinflarini ular orasidagi genetik

bog'lanishni, gomologik qatorlarini, izomerlarini, nomlanishini, fizik xossalarini, kimyoviy xossalarining ularning tarkibi, tuzilishi va funksional guruhlarning tabiatiga, molekulada joylashishi tartibiga bog'liqligini talabalarga o'rgatishdan iborat. Organik kimyo fani prinsipial yangi turdagi mahsulotlarni yangi texnologiya, yangi konstruksion materiallar, fiziologik faol moddalarni tibbiyot, qishloq xo'jaligi ehtiyoji uchun yaratishda muhim rol o'ynashini talabalarga o'rgatadi.
"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning ta'limning integrallashuvi bo'limi talaba-yoshlarning ongini dunyoviy bilimlar bilan boyitishga, ularda tabiiy fanlarning turli sohalariga bo'lgan qiziqishini orttirishga qaratilgan. Xalq xo'jaligining hamma sohalari uchun zamon talablariga javob beradigan kimyogarlarni tayyorlash kimyo fanining dolzarb vazifalaridan biridir. Oliy o'quv muassasalaridan kimyo sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarni puxta biladigan va ulardan amaliyotda foydalana oladigan kadrlarni talab etiladi. Bunday kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim muassaslarida o'qitiladigan organik kimyo faninig ahamiyati nihoyatda kattadir. Organik kimyoni o'qitish talabalarni faqat qator reaksiyalar bilan tanishtirshdan iborat bo'lmasdan balki, ularni mantiqiy fikrlashga va uni amaliyotda tadbiq etishni bilishga o'rgatishdan iboratdir.

ANALITIK KIMYO
fani bo'yicha:

Alalitik kimyo fanini o'qitishning maqsad - talabalarga kimyoviy analizning nazariy asoslarini, va metodlarini, atrof-muhitdagi har xil ob'ektlarning elementar kimyoviy tuzilishini, sifat va miqdoriy aniqlanishni ta'minlaydigan metodlarning ma'lumotlaridan foydalanib chuqur bilim berish va ularda mantiqiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Fanni o'qitishning vazifasi -talabalarni analizning umumiy va nazariy asoslari, kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizikaviy metodlarning asosiy printsiplari bilan tanishtirish; murakkab moddalar aralashmasi analizini zamonaviy fan yutuqlari asosida talabalarga tushuntirish; analitik va metrologik tavsiflar haqida talabalarda yetarlicha ko'nikma hosil qilish; Arreniusning elektrolitik dissotsiatsiya, Lьyuis, Brensted-Lourilarning kislota-asosli nazariyalari va Ostvalьdning suyultirish qonuni, bufer eritmalar, tuzlar gidrolizi qonuniyatlarini mukammal o'rganish; aralashmalar tarkibini birin-ketin va sistematik analiz qilish sxemalarini tuzishni talabalarga o'rgatish, alohida olingan elementlar, kompleks birikmalarning tuzilishi xossalarini o'rganish va mantiqiy xulosalar chiqarishdan iborat. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning ta'limning integrallashuvi bo'limi talaba-yoshlarning ongini dunyoviy bilimlar bilan boyitishga, ularda tabiiy fanlarning turli sohalariga bo'lgan qiziqishini orttirishgaqaratilgan. Xalq xo'jaligining hamma sohalari uchun zamon talablariga javob beradigan kimyogarlarni tayyorlash kimyo fanining dolzarb vazifalaridan biridir.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA
fani bo'yicha:

Pedagogika fanining nazariy-metodologik asoslari pedagogik faoliyat mazmuni, ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yo'llari, ilg'or pedagogik

texnologiyalar bilan yaqindan tanishtirish orqali ularda pedagogik tafakkurni, ijobiy fikrlash qobiliyatini, ta'lim oluvchilar bilan muvaffaqiyatli ishlashga doir zarur malakalarni, vaziyatni to'g'ri baholash, oqilona qarorlarni qabul qilish, ijtimoiy yordamga muhtoj o'quvchilarga bilim berish, ularni maqsadga muvofiq tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish, milliy pedagogik meros g'oyalarini, Sharq va g'arb mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari ta'lim muassasalari amaliyotiga maqsadli tatbiq etish tajribasini hosil qilish.

Pedagogika, didaktika, tarbiya nazariyasi, tarbiya turlari, ta'lim menejmenti, uzluksiz ta'lim, uzluksiz ta'lim turlari, ta'lim ishtirokchilari, maxsus pedagogika, pedagogika tarixi, milliy pedagogik meros, jahon ta'lim tizimi haqida.Ta'lim to'g'risidagi qonun, maktabgacha, umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keying ta'lim. O'zbekiston Respublikasining "Ta`lim to'g'risida"gi qonuni asosida uzluksiz ta'lim prinsiplari.Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari .Oliy ta'lim muassasalari turlari . Ta'limning uzviyligi va uzluksizligi .Pedagogika fani, maqsad va vazifalari . Sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik, tarix, falsafa . Barkamol avlod, milliy ong, ta'limning uzviyligi, tarbiyaning, ijtimoiy muhit, irsiyat . Pedagogik fikrlar va g'oyalar rivojining tarixi. Pedagogika tarixini yaxlit rivojlanish jarayoni Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari Ilmiy tadqiqot metodlariga qo'yiladigan talablar.Ilmiy –pedagogik tadqiqotlar.Ilmiy tadqiqot metodlaring tavsif Ta'lim texnologiyalari,innovatsion pedagogika mazmuni ta'limda muammoli va axborot texnologiyalardan foydalanish, kreativlik va uning tashxislanishi.

Shaxsni evolyustion jihatdan rivojlanishi. Kognitiv jarayonlarni shakllanishi. Insonda aks ettirish darajalari. Psixik jarayonlarni shakllanishida tilning ahamiyati. Inson psixikasini ontogenezda rivojlanishi. Psixik jarayonlar va miyaning o'zaro aloqadorligi. Harakat inson faoliyatning birligi sifatida. Xatti-harakat qurilmalari.

Shaxs psixologiyasining metodologik prinsiplari. Psixologiyada shaxsni o'rganishlar nazariyasi. Shaxs taraqqiyotini davrlarga bo'lish. Shaxs rivojlanishining individuallik xususiyatlari va ularning roli. Sotsiogenezda shaxs. Shaxsning o'z-o'zini anglashi va Men – konsepsiyasi. Shaxsning sotsial tasavvurlari. Shaxs taraqqiyotining psixotik, chegaralangan va nevrotik darajalari.

Motivasiya haqida umumiy tushuncha. Motivasiyaning rivojlanish bosqichlari. Motivasiyaning tuzilishiga tizimli yondashuv. Motivasiyaning ontogenezda shakllanishi. Motivasiyaning psixologik nazariyalari. Emotsiya haqida umumiy tushuncha. Emotsiya psixologiyasining nazariy yondashuvlari. Emotsional holatlari. Shaxsning irodaviy sohasi. Iroda muammosini talqini.

Sezgilar klassifikasiyasi. Sezgilarning o'zgaruvchan shakllari. Teri tuyush sezgisi va idroki. Ko'rish sezgisi va idroki. Eshitish sezgisi va idroki. Ta'm bilish idroki. Hid bilish. Perseptiv obrazni tashkillashtirish. Fazoni idrok qilish. Fazoni eshitish orqali idrok qilish. Musiqani va nutqni idrok qilish. Rangni idrok qilish. Vaqtni idrok qilish. Xatti-harakatni idrok qilish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.D.F.Shriver, P.W. Atkins. Inorganic chemistry, 4th – New-York- 2010.

2.R.H. Petrucci at all. General chemistry: principles and modern applications. 2017., P.1496.

3.Darrell Ebbing, Steven D. Gammon. General chemistry. 11th. 2016., P.1190.

4.N.A.Parpiyev, A.G.Muftaxov, H.R.Rahimov. Anorganik kimyo. Toshkent "O'zbekiston", 2003.

5.J.E.House. Inorganic Chemistry. Elsevier, Illinois Wesleyan University 2013. P.832.

6.Н.С. Ахметов. Общая и неорганическая химия. М.: Высшая школа, 2009. – 743с.

7.Q.Axmerov, A.Jalilov, R.Sayfutdinov. Umumiy va anorganik kimyo. Toshkent: O'zbekiston. 2006.

8.Я.А. Угай. Общая и неорганическая химия. – Москва: "Высшая школа", 2002. – 527 с.

9.Н.И.Файзуллаев, Н.С.Турсунова. Умумий кимё. II қисм. Самарқанд давлат университети, Ўқув-услубий қўлланма. 2019. – 290 б.

10.E.A.Ruziyev, N.I.Fayzullayev, D.E. Turg'unov, M.M.Dusmurodov. Umumiy kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari. SamDU nashri. Samarqand-2019.

11.Reutov O.A., Kurs A.L., Butin K.P. Organicheskaya ximiya. M.: MGU, 2004, s.1985.

12.Shohidoyatov H.M., Xo'janiyozov H.O'., Tojimuhamedov H.S. Organik kimyo. T.: Fan va texnologiya, 2014, 800 b.

13.Alimova M., Saidov A.Sh. Organik kimyo. O'quv qo'llanma. I, II-qism. SamDU tahririy-nashriyot 2019, 2020. -306, -312 b.

14.Michael B. Smith. March's Advanced Organic chemistry. 8th edition. USA, Wiley 2020, p.2140.

15.Carey F.A. Organic chemistry. 10th edition. 2017, p.1248.

16.Clayden J. Organic chemistry. 6th edition. Oxford, 2012, p.1260.

17.A.B.Yusupov, D.B.To'xtayev. Organik kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. 216 b. SamDU-2023.

18.Моррисон Р., Бойд Р. Органическая химия. М.: «Мир». 1974. С. 1132.

19.Нейланд О.Я. Органическая химия. М.: «Высшая школа», 1990. с.750.

20.Berezin B.D, Berezin D.B. Kurs sovremennoy organicheskoy ximii. M.: Высшая школа. 2003. 768 с.

21.Травен В.Ф. Органическая химия в 2-х томах. М.: IKS «Академкнига» 2004. Т.1. с.727, Т.2. с.582.

22.Axmedov Q.N., Yo'ldoshev H.Y. Organik kimyo usullari. T.: «Universitet». 1998, 2003 y 1 va 2-qism.

23.Iskandarov S., Sodiqov B. Organik kimyo nazariy asoslari. 1-qism. T.: Ta'lim, 2012, 712 b.

24.Тренин В.И. Практикум по органической химии. М.: Бином, 2015, с.570.

25.Traven V.F., Shyekotixin A.E. Praktikum po organicheskoy ximii. M.: Binom,

2014, s.595.
26.Шабаров Ю.С. Органическая химия. М.: «Химия». 2000. с.848.
.N.G'.Rahmatullayev, H.T.OMONOV, Sh.M.MİRKOMİLOV Toshkent Iqdisod-moliya-2013
27. I. N. Borisov. Kimyo o'qitish metodikasi. Toshkent, 1958. 5. Z.Azimova.
3."Kimyo darslarida o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berish" T.: 1995.
28.X.T.Omonov., M.N.Mirvoxidova. "Kimyo o'qitish metodikasi" ma'ruzalar matni. 2001.
29.Н.И.Файзуллаев, Н.С.Турсунова, У.М.Норқулов. Умумий кимё. I қисм. Самарқанд давлат университети, 2019, 198 бет. Ўқув-услубий қўлланма.
30.Н.И.Файзуллаев, Н.С.Турсунова. Умумий кимё. II қисм. Самарқанд давлат университети, 2019, 290 бет. Ўқув-услубий қўлланма.
31.E.A.Ruziyev, N.I.Fayzullayev, D.E. Turg'unov, M.M.Dusmurodov. Umumiy kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari. SamDU nashri. Samarqand-2019.
1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarni ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti . 2017 yil
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda parpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
6. SH.M. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'grisidagi 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-son qarori
7. David F. Lohman, Joni M. Lakin. Reasoning and Intelligence. New York: Cambridge University Press. – 2009.
8. Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005.-550p.
9. Edited by Michael Lewis, Jeannette m. Haviland-Jones, and lisa feldman barrett. Handbook of emotions/ The Guilford press. New york london. -2008.
10. Elizabeth A. Styles. The psychology of attention. This edition published in The Taylor & Francis e-Library, 2005.-232 p.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining ta'lim yo'nalishi mutaxassislik fanlaridan fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovini

BAHOLASH MEZONLARI

Sinov topshirish shakli	Yozma
Sinov uchun ajratilgan vaqt	Yozma ishga - 150 daqiqa
Savollar soni	5
Har savolga ajratilgan maksimal ball	Har bir savolga 20 baldan
Maksimal ball	100
O'tish bali	60
Sinov topshirish shakli	Test
Sinov uchun ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	50
Har savolga ajratilgan maksimal ball	2
Maksimal ball	100
O'tish bali	60
Sinov topshirish shakli	Og'zaki
Sinov uchun ajratilgan vaqt	30 daqiqa
Savollar soni	5
Har savolga ajratilgan maksimal ball	10
Maksimal ball	100
O'tish bali	60